



MODERNIZASIYALASH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MODULLI SHAKLI

Normo'minov B.U.

Samarkand, Uzbekistan

*SamDChTI gumanitar fanlar va axborot
texnologiyalari kafedrası assistent o'qituvchisi*

e-mail: normuminovbahodir1@gmail.com

Annotatsiya: maqolada modernizatsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish texnologiyasini takomillashtirishning modulli shakli tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: modernizatsiyalash, ta'lim, texnologiya, takomillashtirish, modul, bilim, ko'nikma.

Abstract: the article analyzes the modular form of improving the technology of increasing the quality of education through modernization.

Keywords: modernization, education, technology, improvement, module, knowledge, skill.

Yangi O'zbekiston strategiyasi "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida mamlakatimizda sifatli ta'limga erishishi texnologiyalarini takomillashtirib borish vazifalari belgilangan [1]. Bunday texnologiyalarni takomillashtirishning shakllaridan biri ta'lim jarayonini modernizatsiyalashdir. Bu o'rinda e'tiboringizni modernizatsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish texnologiyasini takomillashtirishning *modulli shakli* tahliliga tortamiz.

Ta'lim muhitini modernizatsiyalash moduli. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturi"da sifatli ta'limning bir qator texnologiyalari belgilangan [2]. Bunday texnologiyalarning asosiylari ta'lim sharoitini kuchaytirish, ta'lim oluvchilar va ta'lim oluvchilarga o'ziga xos ta'lim muhitini yaratish hamda o'zlashtirish jarayonini kuchaytirishdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim jaryonida ana shu texnologiyalar asosida sifatli ta'lim ko'rsatkichlariga erishish vazifalari amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda mazkur texnologiyalarni takomillashtirish shakllaridan biri ta'lim muhitini modernizatsiyalash modulidir. Mazkur modulda quyidagi masalalar muhim o'rin tutadi:

1. modullashtirish imkoniyatlaridan foydalanish;
2. modullashtirish asosida ta'lim muhitini modernizatsiyalash;
3. modullashtirilgan ta'lim muhitni modernizatsiyalashning samaradorligini baholash.

Modul - bu ta'lim va tarbiya jarayonini muayyan andoza asosida amalga oshirish jarayonidir [3]. Shu jihatdan modullashtirishda ta'lim va tarbiya jarayoni bo'laklarga bo'linib amalga oshiriladi hamda unda ta'limning amaliy samaradorligiga asosiy e'tibor qaratiladi. Misol uchun, bugungi kunda mamlakatimizda Pedagogika o'quv fani



pedagogika nazariyasi, didaktikasi, metodologiyasi va texnologiyasi modullariga bo'lib o'qitilmoqda. Shu ma'noda ta'lim muhitini *modernizatsiyalash moduli* o'ziga xos andoza asosida ta'lim-tarbiya jarayonini yangilashni nazarda tutadi. Bunda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- a) ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar uchun zamonaviy sharoitlarni yaratish;
- b) ta'lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirish;
- v) ta'lim muhitini muntazam rivojlantirib borish.

Bu masalalar ta'lim muhitini modernizatsiyalash modulining tarkibini tashkil qiladi. Shu jihatdan ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar uchun zamonaviy sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitlar – bu ta'lim maskanlarining binolarini pedagogik, psixologik va sanitariya-gigiena talablariga mos ravishda qurish, ularni eng zamonaviy va yangi texnik uskunalar hamda jihozlar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonida vaqt rejimiga qat'iy amal qilish kabilardan iborat. Jumladan, Milliy dastur asosida mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi sharoitlar muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bunda asosiy e'tibor yangi binolar qurish va ularni so'ngi modeldagi texnologiyalar bilan ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablarining sharoitlari yangilanib bormoqda.

Ta'lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirib borish ta'lim jarayonini modernizatsiyalash modulining muhim qismidir. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda nodavlat ta'lim muassasalari mamlakatimizda ta'lim muhitini kengaytirish va ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim sharoitlari, ta'lim muhiti, ta'lim berish sifati va ta'limni o'zlashtirish jarayonlarini kengaytiradi. Bunda ayniqsa, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar o'qitishning turli ko'rinishlariga ega bo'ladi. Mazkur ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro ta'lim dasturlari (masalan, TIMSS, STEAM kabilari) talablari asosan ishlab chiqilgan o'ziga xos o'quv rejalari, dasturlari hamda adabiyotlari amal qilmoqda. Shu jihatdan nodavlat muassasalari ta'lim jarayonini modernizatsiyalash modulining muhim tarkibi sifatida biz tomonimizdan qabul qilinadi [4].

Modullashtirilgan yondoshuv asosida ta'lim muhitini rivojlantirib borish ham ta'lim jarayonini modernizatsiyalashning muhim tarkibiy qismidir. Bunda o'qitishning noan'anaviy shakllari vositasida ta'lim muhitini rivojlantirish borish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun maktabdan tashqari ta'lim shakllari bo'lgan ekskursiya, ekspeditsiya, sayyohat kabi noan'anaviy o'qitish shakllaridan foydalanish modullashgan ta'lim muhitini rivojlantirish imkonini beradi. Bu ta'lim jarayonini modernizatsiyalashning muhim omillaridan biridir.

E'tibor berilsa, ta'lim muhitini modernizatsiyalashda modulli yondashuv keng imkoniyatlarni beradi.

Modullashtirish asosida ta'lim muhitini modernizatsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini umumiy rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda bunda maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional hamda oliy ta'limni uzluksizlik ta'moyili asosida rivojlantirish ta'lim jarayonini modernizatsiyalashning asoslarini tarkib topishida muhim o'rin tutadi.



E'tibor berilsa, ta'lim muhitini modernizatsiyalashning modulli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning asosini ta'lim sifati g'oyasi asosida modellashtirish tashkil qiladi.

O'quv fanlarini modernizatsiyalash moduli. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-143-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur"ga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv fanlari quyidagi tartibda turkumlashtirib o'qitilmoqda:

- 1) aniq fanlar;
- 2) tabiiy fanlar;
- 3) gumanitar fanlar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq fanlar turkumi 1-11-sinflarni qamrab olgan. Bunda matematika, informatika, algebra va astronomiya o'quv fanlari umumiy "aniq fanlar" nomi bilan yuritilmoqda. Shu sababli mazkur o'quv fanlarini modernizatsiyalashda birinchi sinfdan o'n birinchi sinfga qadar mavzularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini t'minlash dolzarb bo'lib turibdi. Mavzularning mantiqiy bog'liqligi o'quv materiallarining ham ketma-ketligini taqazo etadi. Bunday yondoshuv umumiy o'rta maktablarida aniq fanlarni o'qitish jarayonini yangilash imkonini beradi. Ayni paytda quyidagicha muammo mavjud: o'quvchilar boshlang'ich sinfdan keyin o'qishni ixtisoslashtirilgan yoki ijodiy ta'lim muassasalarida davom ettirsa, aniq fanlarni o'zlashtirish susayadi. Bu muammoni hal etish uchun ixtisoslashtirilgan yoki ijodiy ta'lim muassasalarida ham umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan darsliklarning amalda bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan ta'lim jarayonida aniq fanlarning o'qitishning modernizatsiyasi bo'yicha o'ziga xos modulga ega bo'linadi.

Ta'lim tizimida o'qitilayotgan tabiiy fanlarning asosiy mavzulari umumiy o'rta ta'lim maktabida to'liq o'qitiladi. Shu sababli ixtisoslashtirilgan, ijodiy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ham umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-11-sinflari uchun tabiiy fanlar bo'yicha darsliklari asosida o'qish jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki asosiy maqsad o'quvchilarning tabiiy-ilmiy bilimi, ko'nikmasi va malakasini tarkib toptirishdan iborat. Jamiyatimizning texnologik rivojlanishi shaxsning tabiiy-ilmiy tafakkurga ega bo'lishini taqazo etmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashtirilgan, ijodiy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida tabiiy fanlar bo'yicha yagonalashgan darsliklarning amalda bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida gumanitar fanlarni o'qitish muhim o'rin tutadi. Chunki gumanitar fanlar vositasida shaxsning milliy ongi, ruhi, mentaliteti va axloqi shakllantiriladi. Shu sababli yuqorida ta'kidlangan Milliy dasturda gumanitar fanlar bo'yicha milliy darsliklarga asosan ta'lim jaryonini amalga oshirish belgilangan. Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashtirilgan, ijodiy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida tipiklashgan va yagona g'oyaga asoslangan darsliklarning amalda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida ta'lim tizimida gumanitar fanlarni o'qitish jarayonini modernizatsiyalash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Diqqat qilinsa, ta'lim tizimida o'quv fanlarini o'qitish jarayonini modernizatsiyalash muhim xususiyatlarga ega. Buning uchun quyidagilarni qamrab olgan modulga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:



- a) ta'lim muassasalarida umumlashgan va tipiklashgan mavzularga ega o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- b) o'quv adabiyotlarining yagonalashgan variantlarini ishlab chiqish;
- v) mamlakatning butun ta'lim tizimida ta'kidlangan Milliy dasturning amalga bo'lishiga erishish.

Bunday yondoshuv ta'lim jarayonida o'quv fanlarini modernizatsiyalash imkonini beradi. Shu sababli mazkur masalaning monitoringi Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zlashtirish jarayonini modernizatsiyalash moduli. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limni o'zlashtirish jarayonini baholash turli shakllarda amalga oshirilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida baholashning 5 ballik shakli va oliy ta'lim muassasalarida baholashning 100 ballik shakli amalga qo'llanilmoqda. Shu sababli o'zlashtirish jarayonini modernizatsiyalashga ehtiyoj mavjud. Mazkur masalada bizningcha, quyidagi modulga asoslanish ta'lim jarayonini yangilashda va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishda kutilgan samarani beradi:

- 1) baholashning kredit- modul tizimini butun ta'lim jarayoniga tadbqiq etish;
- 2) baholashning erkin shakllariga amal qilish;
- 3) baholashda o'quv fanlari asoslarining o'zlashtirilishini bosh mezon sifatida qabul qilish.

O'zlashtirish jarayonini modernizatsiyalashda baholashning kredit-modul tizimi muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, ta'lim oluvchi o'quv fanlarini o'zlashtirishda kredit yig'ish tizimiga amal qiladi va bunda "qoniqarli", "yaxshi" hamda "a'lo" belgilariga rioya qilinadi. Kredit yig'ish uchun ikki bor imkoniyat beriladi, agar ikkinchi marotaba ham ta'lim oluvchi "qoniqarli" belgisini ololmasa kredit pulli shaklda taqdim etiladi. Agar ta'lim oluvchi baho belgilari ko'rsatkichlarini yuqorilashni istasa, unga kredit olish uchun imkoniyat beriladi. Baholashning mazkur kredit-modulida asosiy e'tibor ta'lim oluvchining bilim va ko'nikma darajasini aniqlashga qaratiladi. Bu hol o'zlashtirish jarayonini modernizatsiyalash imkonini beradi. Chunki bugungi kunga qadar baholash tizimida ta'lim oluvchining bilim darajasiga asosiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zlashtirish jarayonini modernizatsiyalashda baholashning erkin shakllariga asoslanish ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, muayyan o'quv fani bo'yicha kredit olish uchun shaxsning yoshi cheklanilmaydi. Misol uchun, shaxs 40 yoshidan keyin ham Matematika fani bo'yicha o'zining o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun kredit olishi mumkin. Bundan maqsad shaxsning butun hayot davomida o'quv fanlari bo'yicha bilim va ko'nikmasini rivojlantirib borishdan iborat. Chunki jamiyatimizning texnologik rivojlanib borishi shaxsning hayot davomida yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib borishini taqazo etmoqda. Shu sababli mazkur omillar o'zlashtirish jarayonini modernizatsiyalashni va unda baholashning erkin shakllariga amal qilishni taqazo qilmoqda.

Ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda o'zlashtirishni baholashning yangi shakllari muhim o'rin tutadi. Bunda kredit-modul tizimining talablari asosida o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga asosiy e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv fanlarining asoslarini o'zlashtirish shaxsni texnologik jamiyat talablariga moslashtirib boradi. Misol uchun, bugungi kunda shaxsning nanatexnologiya bo'yicha



bilimga va ko'nikmaga ega bo'lishi ehtiyoji mavjud. Chunki ishlab chiqarish jarayoni texnikaning eng so'ngi modellariga asoslanmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishni baholash taqazo etilmoqda.

E'tibor berilsa, o'zlashtirish jarayonini baholash modulida erkinlik tamoyiliga asoslangan ta'limning kredit-modul tizimi muhim o'rin tutadi va bu tizim ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda keng imkoniyatlarni beradi.

Shunday qilib modernizatsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish texnologiyalarini takomillashtirishning modulli shakli o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bunda ta'lim muhitini modernizatsiyalash, o'quv fanlarini modernizatsiyalash va o'zlashtirish jarayonini modernizatsiyalash katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Yangi O'zbekiston strategiyasii "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi.// www.ziynet.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturi". // www.ziynet.uz
3. Jo'raev R. va boshqa. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: "Fan". 2008. – 80 b.
4. Abdujalilova Sh. Abdurauf Fitratning pedagogic ta'lim ta'limoti. – Toshkent, 2022.